

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURIZM VA SERVIS KAFEDRASI

*Qo‘lyozma huquqida*

UDK: 339.138 (575.1)

ABDUQAHOROV ADBUJALIL ADBUJABBOR O‘GLI

ZIYORAT TURIZMI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH

71010403– “Turizm (ziyorat turizmi)” mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. Amonboev M.

Toshkent-2023

Magistrlik dissertatsiya ishi «Turizm va servis» kafedrasida dastlabki ximoyadan o'tgan


\_\_\_\_\_ sonli bayonnoma «26» aprel 2023 yil

Kafedra mudiri: Axmedov I.A.

  
imzo


05.05.2023 uz  
sana

Ilmiy rahbar: Amonboev M.

  
imzo

05.05.2023  
sana

Magistr: Abduqahorov A.A.

  
imzo

05.05.2023  
sana

Dissertatsiya "Xalqaro turizm" fakultetida 2022 yil «20» dekabr  
№ 808 T raqami bilan ro'yhatga olindi

## ANNOTATSIYA

Jahonda musulmon turistlarning ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida ziyorat turizm xizmatlarini tashkil etish va islomiy tamoyillarga muvofiq keluvchi zaruriy infratuzilmalarini yaratish, ziyorat turizm infratuzilmasini rivojlantirishni omillar orqali baholash, islomiy tamoyillarga asosan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni diversifikatsiya qilish uchun investisiyalar kiritish va turizm sohasini raqamlashtirish sharoitida ushbu mahsulotlarni onlayn sotish va sotib olish uchun innovasion loyihalarini qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlardagi ilmiy muammolarni tadqiq etishga alohida e'tibor berilmoqda. Shuningdek, ziyorat turizmini rivojlantirishda islomiy tamoyillarga muvofiq keluvchi sayyohlik yo'nalishlarini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish, xalqaro ziyorat turizmi muhitini yaratish, ziyorat turizmini rivojlantirish doirasida mahalliy va xalqaro aviareyslari hamda temir yo'l qatnovini yo'lga qo'yishga alohida ahamiyat berilmoqda. "Ziyorat va an'anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan marshrutlardagi ob'ektlar sonini 800 taga yetkazish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash" nazarda tutilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda ziyorat turizmini infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, uni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarini yaratish, "halol" standartlariga javob beradigan turistik infratuzilmalarini tashkil etish, islomiy tamoyillarga asoslangan tartiblarni joriy etish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** *ziyosat turizm, muqaddas joylar, ziyorat turizmning hozirgi holati, ziyorat turizm infratuzilmasi*

## SUMMARY

In order to meet the needs of Muslim tourists in the world, the organization of pilgrimage tourism services and the creation of the necessary infrastructure in accordance with Islamic principles, the evaluation of the development of pilgrimage tourism infrastructure by factors, the introduction of investments for the diversification of products produced according to Islamic principles, and the online sale and purchase of these products in the context of digitalization of the tourism sector special attention is paid to the research of scientific problems in areas such as support for innovative projects. Also, in the development of pilgrimage tourism, the development and support of tourist destinations in accordance with Islamic principles is defined as one of the priority tasks.

Today, special importance is attached to the development of pilgrimage tourism in Uzbekistan, the creation of an environment for international pilgrimage tourism, and the establishment of domestic and international flights and railways within the framework of the development of pilgrimage tourism. "Determining measures to increase the number of objects on the routes where pilgrimage and traditional tourism can be developed to 800" is envisaged. In the implementation of these tasks, it is important to deepen scientific research in areas such as determining the priorities for the development of pilgrimage tourism infrastructure, creating the necessary conditions for its development, organizing tourist infrastructures that meet "halal" standards, and introducing procedures based on Islamic principles.

**Key words:** *pilgrimage tourism, holy places, current status of pilgrimage tourism, infrastructure of pilgrimage tourism*

## KIRISH

So'nggi paytlarda turizm sohasi jadal rivojlanib, transport va aloqa vositalari yaxshilandi. Odamlar ziyorat turizmi ob'ektlarini ziyorat qilish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga, boshqa mamlakatlar xalqlarining ma'naviy yutuqlariga qo'shilish, ziyorat turizmi ob'ektlari bilan tanishish istagi paydo bo'ldi.

Bugungi kunda ziyorat turizmining ko'plab ob'ektlarining mazmuni va maqsadi odamlarga sig'inish ob'ektlari va bilim oshirish ob'ektlariga aylanmoqda. Binobarin, diniy qadriyatlar madaniy meros va turizm ob'ektlarining bir qismidir.

Ziyoratgohlarni ziyorat qilish azaldan dunyo xalqlarining eng muhim va ardoqli an'analaridan biri bo'lib kelgan. Bugungi kunda muqaddas joylarga sayohat qilish uchun intiladilar. Ko'pgina ob'ektlar muzeylarga, uy-muзейlarga aylantirildi va shuning uchun ular ziyorat turizmi ob'ekti sifatida foydalanadilar.

Ta'kidlash joizki, ziyorat turizmi xalqaro va ichki turizm tizimida muhim o'rin tutadi. Odamlar muqaddas joylar va diniy markazlarga haj va ekskursiya safarlariga borishadi. Ular diniy marosimlarda qatnashishga, ibodat qilishga va qurbonlik qilishga intilishadi.

### **Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi**

So'nggi vaqtlarda har bir sohani isloh qilish bilan birga, yuksak taraqqiyot bosqichiga olib chiqish yangilanayotgan O'zbekiston davlatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar mamlakat iqtisodiyotini, aholi turmush tarzini, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'sini oshirishga xizmat qiladi.

Hech kimga sir emaski, so'nggi bir necha yil ichida mamlakatimizda turizm sohasiga oid qator qonunlar, farmonlar, qarorlar qabul qilinmoqda. Buning yaqqol namoyondasi sifati o'laroq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 9-fevralda e'lon qilingan, "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-sonli va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil